

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJA BERUVCHI DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

MIRZAYEVA ZUBAYDA ODILJON QIZI

**ACHCHIQ TARVUZ ASOSIDA XALQ TABOBATI UCHUN OZIQ-
OVQAT QO‘SHILMALARI OLIH VA ULARNI SINFLASH**

**02.00.09 -Tovarlar kimyosi
14.00.41 - Xalq tabobati**

**KIMYO FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Andijon – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtorefarati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии(PhD)
Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Mirzayeva Zubayda Odiljon qizi

Achchiq tarvuz asosida xalq tabobati uchun oziq-ovqat qo‘shimchalari olish va ularni sinflash 3

Мирзаева Зубайда Одилжон қизи

Получение и классификация пищевых добавок для народной медицины на основе горького арбуза 21

Mirzaeva Zubayda Odiljon qizi

Obtaining food additives for folk medicine based on bitter watermelon and classifying them..... 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 43

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJA BERUVCHI DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

MIRZAYEVA ZUBAYDA ODILJON QIZI

**ACHCHIQ TARVUZ ASOSIDA XALQ TABOBATI UCHUN OZIQ-
OVQAT QO‘SHILMALARI OLIH VA ULARNI SINFLASH**

**02.00.09 -Tovarlar kimyosi
14.00.41 - Xalq tabobati**

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Andijon – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/K630 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat universitetida bajarilgan.

(Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-saxifasida (www.adu.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.)

Ilmiy rahbarlar:

Asqarov Ibrohim Rahmonovich

kimyo fanlari doktori, professor

Topvoldiyev To'liqinjon

biologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xojimatov Maxsadbek Mo'ydinovich

kimyo fanlari doktori, dotsent

Razzaqov Nabijon Alijonovich

kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori

Yetakchi tashkilot:

Qo'qon davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat universiteti huzuridagi DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil "26" XII soat 10⁰⁰ daqiqa majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 170100, Andijon sh., Universitet ko'ch. 129. Tel.: (99877) 223 88 30, faks : (99874) 223 84 33)

Dissertatsiya bilan Andijon davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 170100, Andijon sh., Universitet ko'ch. 129. Tel.: (99877) 223 88 30, faks : (99874) 223 84 33 e-mail: abshax@mail.ru).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil "13" XU kuni tarqatildi.
(2023 yil "13" XII daqiqa № 27 raqamli reyestr bayonnomasi.)



X.Isaqov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
raisi, t.f.d., professor

M.M.Mo'minjonov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, k.f.d.

Sh.V.Abdullayev

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, k.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda doriv o‘simliklarning kimyoviy tarkibini aniqlash, ular asosida inson organizmi uchun foydali bo‘lgan, bezarar tabiiy oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqish muhim dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu borada, turli vegetatsion davrlardagi dorivor o‘simliklarning qismlari asosida sintetik dori vositalariga yordamchi bo‘ladigan, tarkibida biologik faol birikmalar, makro- va mikroelementlar saqlagan tabiiy, zararsiz va ekologik toza oziq-ovqat qo‘shimlarini ishlab chiqish hamda xalq tabobatida qo‘llash alohida ahamiyatga ega.

Jahonda qandli diabet kasalligini oldini olish va davolash xususiyatiga ega bo‘lgan dorivor o‘simliklardan ajratib olingan tabiiy birikmalardan tayyorlangan oziq-ovqat qo‘shimlari ishlab chiqish borasida tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, qandli diabet kasalligini davolovchi yoki uni oldini oluvchi dorivor o‘simliklar asosida tabiiy, ekologik toza, immunitetni oshiruvchi, hamda ayrim sintetik preparatlarni o‘rnini bosuvchi biologik faol oziq-ovqat qo‘shimlarini ishlab chiqishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Shuning uchun ham tarkibida qondagi qand miqdorini pasaytiruvchi achchiq tarvuz o‘simligidan foydalanib, qandli diabet kasalligini davolash va oldini olish xususiyatiga ega bo‘lgan tabiiy oziq-ovqat qo‘shimlari yaratish, ularni kimyoviy tarkibini aniqlash, xamda ularga TIF TN bo‘yicha yangi tovar kodi ishlab chiqishga alohida e‘tibor berilmoqda.

Respublikamizda inson organizmi immunitetini oshirish bilan birga ko‘pgina kasalliklarni oldini olish va davolash xususiyatiga ega bo‘lgan tabiiy oziq-ovqat qo‘shimlari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy qilingan. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida¹ “Oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish dasturini amalga oshirish” bo‘yicha amalga oshirilishi muhim bo‘lgan vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, tabiiy manbalar asosida tarkibida qandli diabet kasalligini oldini oluvchi birikmalar saqlagan, organizm immunitetini ko‘taruvchi, zararsiz, tabiiy biologik faol oziq-ovqat qo‘shimlarini yaratish, shuningdek ularning kimyoviy tarkibi, tuzilishi, xossalarini o‘rganish xamda TIF TN bo‘yicha tovar kodlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF- 60-son «2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni, shuningdek, 2020 yil 10 apreldagi PQ-4670-son “Yovvoyi holda o‘sovchi dorivor o‘simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda etishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori hamda PF-4668-son “O‘zbekiston Respublikasida xalq tabobatini rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 20 maydagi PQ-251-son “Dorivor o‘simliklarni madaniy holda yetishtirish va qayta ishlash hamda davolashda ulardan keng foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi hamda 2018 yil 12

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni.

oktyabrdagi PQ-3968 - son «O‘zbekiston Respublikasida xalq tabobati sohasini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori, 2017 yil 7 noyabrdagi PF-5229-son “Farmasevtika tarmog‘ini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmoni mazkur yo‘nalishga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. “Kimyo texnologiyalar va nanotexnologiyalar” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Achchiq tarvuzning kimyoviy tarkibi va biologik faol birikmalarining xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha xorijiy olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, pokistonlik olimlar A. Hussain, M. Munavar, M. Said, M. Sajjad Xon, xitoylik olimlar Qin-Yuan Li, Ji-Qiang Shen, misrlik olim M. Alagavaniy Assad, malayzionalimlar Hassaan A. Rathore, Munavvar Z.A. Sattar, arabistonlik olimlar Ramzi A. Mothana, Nasir A. Siddiqui, Omer M. Almarfadi, kabi ko‘plab xorijiy mutaxassislar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan.

Respublikamizda ushbu tadqiqot yo‘nalishida I.R.Asqarov, T.Topvoldiyev, I.Boboyev va boshqalar achchiq tarvuzning shifobaxsh xususiyatlarini va ko‘plab kasalliklarga davolash ekanligini aniqlashgan. Shuningdek, kasalliklarni oldini oluvchi va davolovchi dorivor o‘simliklar tarkibidan biologik faol birikmalarni ajratib olish, ular asosida dori vositalari va oziq-ovqat qo‘shilmalarini yaratish ustida kimyo fanlari doktori, professor I.R. Asqarov, t.f.d., professor X.Isaqov, k.f.d., Y.T.Isayev, O.Sh.Abdullayev, M.M.Mo‘minjonov, I.Y.Mamatova, kabi ko‘plab o‘zbek olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borganlar.

Hozirgi kunda tarkibida achchiq tarvuz urug‘i va ayrim dorivor o‘simliklar saqlagan, qandli diabet kasalligini davolash va oldini olish xususiyatiga ega bo‘lgan oziq-ovqat qo‘shilmalari ishlab chiqilmagan, ularning kimyoviy tarkibi aniqlanmagan va kimyoviy tarkibi asosida TIF TN bo‘yicha tovar kodlari ishlab chiqilmagan.

Mazkur dissertatsiya ishi oziq-ovqat qo‘shilmalarini qandli diabet kasalligini oldini olish va davolashda foydalanish, ular uchun kimyoviy tarkibi asosida tegishli yangi tovar kodlari ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish kabi muammolarni yechishga yo‘naltirilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Andijon davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining “Xalq xo‘jaligi va xalq tabobatida foydalaniladigan tovarlar olish va ularni sinflash” yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi achchiq tarvuz urug‘i va po‘stlog‘i asosida oziq-ovqat qo‘shilmasi yaratish, ularning kimyoviy tarkibi va xususiyatlarini aniqlash hamda kimyoviy tarkibi asosida TIF TN bo‘yicha yangi tovar kodlari ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

achchiq tarvuz po'stlog'i va urug'ining fizik-kimyoviy tarkibini zamonaviy tadqiqot usullari yordamida aniqlash;

achchiq tarvuz po'stlog'i va urug'ining har xil nisbatdagi aralashmasini *in vitro* sharoitida antioksidantlik faolligini adrenalinni autooksidlanish usulida spektrofotometrik metod bilan aniqlash;

achchiq tarvuzning urug'i va po'stlog'i asosida qandli diabet kasalligini oldini olishda qo'llaniladigan tabiiy oziq-ovqat qo'shilmalarini ishlab chiqish;

yaratilgan oziq-ovqat qo'shilmalarini kimyoviy tarkibini aniqlash va qondagi qand miqdorini me'yorlashtirish xususiyatini aniqlash;

yangi oziq-ovqat qo'shilmalarining antioksidant va antiradikal faolligini aniqlash;

ishlab chiqilgan oziq-ovqat qo'shilmalari uchun me'yoriy hujjatlar ishlab chiqish;

yaratilgan oziq-ovqat qo'shilmalari uchun TIF TN bo'yicha xalqaro tovar kodlari ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida Andijon viloyatida ekilgan achchiq tarvuzning urug'i va po'stlog'i, ular tarkibidagi biologik faol birikmalar olingan.

Tadqiqotning predmetini achchiq tarvuzning urug'i va po'stlog'i asosida biologik faol oziq-ovqat qo'shilmalarini yaratish va ularni kimyoviy tarkibi asosida sinflarga ajratish tashkil etgan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida dorivor o'simliklarni yig'ish va quritish, ekstraktsiya, tozalash, biologik faol oziq-ovqat qo'shilmalar tarkibini aniqlash, YuSSX, Induktiv bog'langan plazmali mass-spektrometriya, ME-FA metodlari hamda antioksidantlik, antiradikallikni aniqlash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor achchiq tarvuz po'stlog'i va urug'i tarkibidagi makro- va mikroelementlar, suvda eruvchan C, B₁, B₂, B₆, B₉ va B₁₂ vitaminlari hamda rutin, kversetin, gall kislotasi va kofein miqdori zamonaviy fizik-kimyoviy usullar yordamida aniqlangan;

in vitro sharoitida achchiq tarvuz urug'ining antioksidantlik faolligi gliklazidga nisbatan 6,4 marta, kversetinga nisbatan 1,9 marta yuqori ekanligi, shuningdek, po'stning antioksidantlik faolligi mos ravishda 6 va 1,7 marta yuqori ekanligi isbotlangan;

ilk bor achchiq tarvuz urug'i va po'stlog'i asosida qandli diabet kasalligini davolash va oldini olish xususiyatiga ega bo'lgan "ASMIRTOL" va "ASMIRTOP" tabiiy oziq-ovqat qo'shilmalari ishlab chiqilgan;

in vitro sharoitida "ASMIRTOL" oziq-ovqat qo'shilmalarning antioksidant faolligi gliklazidga nisbatan 6,2 marta, kversetinga nisbatan 1,8 marta yuqori ekanligini, shuningdek, "ASMIRTOP" oziq-ovqat qo'shilmalarning antioksidant faolligi mos ravishda 5,9 va 1,7 marta yuqori ekanligi aniqlangan;

antiradikal faollik etalonga nisbatan “ASMIRTOL” oziq-ovqat qo‘shilmasida 1,8 marta, “ASMIRTOP” oziq-ovqat qo‘shilmasida esa 1,1 marta yuqori ekanligi isbotlangan.

“ASMIRTOL” oziq-ovqat qo‘shilmasining qandli diabet kasalligida qondagi qand miqdorini pasaytirish xususiyati “GLUKEYR” preparatiga nisbatan 1,3 m

a “ASMIRTOL” va “ASMIRTOP” oziq-ovqat qo‘shilmalari uchun kimyoviy tarkibi asosida TIF TN bo‘yicha yangi tovar kod raqamlari ishlab chiqilgan.

t **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

a Tarkibida achchiq tarvuzning urug‘i va po‘stlog‘i asosida olingan “ASMIRTOL” va “ASMIRTOP” oziq-ovqat qo‘shilmalari ishlab chiqilgan;

a achchiq tarvuz urug‘i va po‘stlog‘i asosida olingan “ASMIRTOL” va “ASMIRTOP” oziq-ovqat qo‘shilmalarini ishlab chiqarish uchun texnik shart ishlab chiqilgan;

u qandli diabet kasalligini davolash va oldini olish xususiyatiga ega bo‘lgan, achchiq tarvuz urug‘i va po‘stlog‘i asosida tayyorlangan tabiiy oziq-ovqat qo‘shilmalariga TIF TN bo‘yicha yangi xalqaro tovar kodi ishlab chiqilgan.

r **Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi achchiq tarvuzning urug‘i va po‘stlog‘i asosida olingan “ASMIRTOL” va “ASMIRTOP” oziq-ovqat qo‘shilmasi yaratilib, flavonoid hamda vitaminlar tarkibi YuSSX usullarida o‘rganilgani, ularning biologik faolliklari yetakchi ilmiy-tadqiqot institutlari tomonidan tasdiqlanganligi, olingan natijalarning ilmiy nashrlarda chop etilganligi, amaliy natijalarini vakolatli davlat tuzilmalari faoliyatiga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

l **Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati achchiq tarvuzning urug‘i va po‘stlog‘i asosida olingan “ASMIRTOL” va “ASMIRTOP” oziq-ovqat qo‘shilmalarining kimyoviy tarkibi hamda shifobaxsh xususiyatlari Kohen, YuSSX, Induktiv bog‘langan plazmali mass-spektrometriya, ME-FA metodlari yordamida aniqlanganligi bilan izohlanadi.

i Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati achchiq tarvuz urug‘i va po‘stlog‘i asosida olingan “ASMIRTOL” va “ASMIRTOP” oziq-ovqat qo‘shilmasini ishlab chiqilgani, ularni shifobaxsh oziq-ovqat qo‘shilmasi sifatida xalq tabobati amaliyotiga tavsiya qilingani, hamda ularga kimyoviy tarkibi asosida TIF TN bo‘yicha yangi tovar kodi ishlab chiqishga hizmat qiladi.

l **Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Achchiq tarvuz urug‘i va po‘stlog‘ining kimyoviy tarkibi va shifobaxsh xususiyatlarini aniqlash, ular asosida yangi oziq-ovqat qo‘shilmalarini ishlab chiqish va kimyoviy tarkibi asosida sinflash bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

a “ASMIRTOL” va “ASMIRTOP” oziq-ovqat qo‘shilmalari uchun ishlab chiqilgan texnik shart O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati tomonidan tasdiqlangan (Tsh 303271760-02:2023, №31-8/927-son xat). Natijada achchiq tarvuz po‘sti va urug‘i asosida tabiiy biologik faol oziq-ovqat qo‘shilmalarini ishlab chiqarish imkonini bergan.

“ASMIRTOL” va “ASMIRTOP” oziq-ovqat qo‘shilmalarini talab darajasida ishlab chiqarish uchun ishlab chiqilgan texnologik yo‘riqnoma ishlab chiqilgan O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati tomonidan tasdiqlangan (TY303271760-02:2023, №31-8/927-son xati). Natijada, qandli diabetni davolash xususiyatiga ega bo‘lgan yangi tabiiy biologik faol oziq-ovqat qo‘shilmalarini ishlab chiqarish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta, jumladan, 4 ta xalqaro 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 18 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalarining ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola, shundan 9 ta maqola respublika va 3 ta maqola xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rt bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 111 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida olib borilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, ob‘yekti hamda predmetlari tavsiflangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi hamda amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Achchiq tarvuzning kimyoviy tarkibi, foydali xususiyatlari, xalq tabobatidagi o‘rni (adabiyotlar tahlili)**” deb nomlangan birinchi bobida dissertatsiya mavzusi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar va muammoning o‘rganilganlik darajasi batafsil tahlil qilingan. Bu borada Achchiq tarvuz (*Citrullus colocynthis*) ning botanik tavsifi, o‘simlikning tarqalish areali va tarkibiy qismlarining kimyoviy tarkibi to‘g‘risida ilmiy adabiyotlar tahlil qilingan. Shu bilan birga achchiq tarvuzning shifobaxsh xususiyatlari va xalq tabobatidagi ahamiyati, qandli diabet kasalligini kelib chiqish sabablari va davolash usullari, xalq tabobatida qandli diabet kasalligini davolashda qo‘llaniladigan dorivor o‘simliklar, achchiq tarvuzning qandli diabet kasalliklarida qo‘llanilishi va biologik faol oziq-ovqat qo‘shilmalarining kimyoviy tarkibi bo‘yicha tasniflanishi to‘g‘risida ham ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Achchiq tarvuzning kimyoviy tarkibi (olingan natijalar muhokamasi)**” deb nomlangan ikkinchi bobida achchiq tarvuz po‘stlog‘i va urug‘i tarkibidagi aminokislatalar, vitaminlar, polisaxaridlar miqdorini aniqlash natijalari, achchiq tarvuz urug‘idagi yog‘ miqdorini aniqlash natijalari, achchiq tarvuz urug‘ini ekstraktlari tarkibidagi makro- va mikroelementlarni aniqlash natijalari, achchiq

tarvuz urug‘i hamda po‘stlog‘i ekstraktini antioksidant faolligini adrenalin *in vitro* sharoitida aniqlash natijalari, achchiq tarvuz asosida olingan ASMIRTOL VA ASMIRTOP oziq-ovqat qo‘shilmalari tarkibidagi suvda eruvchi vitaminlar, flavonoidlar, makro va mikroelementlar miqdorini aniqlash natijalari tahlil qilingan. Shuningdek, achchiq tarvuz asosida olingan ASMIRTOL va ASMIRTOP oziq-ovqat qo‘shilmalarini adrenalin *in vitro* sharoitida antioksidant va antiradikal faolligini aniqlash natijalari hamda ASMIRTOL oziq-ovqat qo‘shilmasining qondagi glyukoza miqdorini kamayishiga ta’siri ko‘rsatib o‘tilgan.

Achchiq tarvuz urug‘i va po‘stining sifat va miqdor ko‘rsatkichlarini aniqlash davlat farmakopeyasi talablaridan kelib chiqib bajarildi.

Bunga ko‘ra, achchiq tarvuz po‘stida namlik 7,4 %, urug‘ida 4,6 %, kul miqdori esa po‘stida 5,9 %, urug‘ida 4,48 % ni tashkil qildi (1-jadval)

1-jadval

Achchiq tarvuz urug‘i va po‘stining sifat va miqdor ko‘rsatkichlari

Tarkibi	Achchiq tarvuz	
	Po‘sti	Urug‘i
Namlik, %	7,4	4,6
Kul miqdori, %	5,9	4,48

Achchiq tarvuz po‘stlog‘i va urug‘i tarkibidagi erkin aminokislotalarning miqdori Koxen usulida aniqlandi.

2-jadvalda keltirilgan natijalarning tahliliga ko‘ra, Andijon viloyatida yetishtirilgan achchiq tarvuzning po‘stlog‘i tarkibida gistidin (7,39 mg/g), urug‘i tarkibida esa sistein (6,06 mg/g) ko‘p miqdorda mavjudligini ko‘rsatdi. Eng kam uchraydigan aminokislotalardan esa po‘stloq (0,39 mg/g) va urug‘ tarkibida fenilalanin (0,45 mg/g) ekanligi aniqlandi.

Turli mamlakatlarda yetishtirilgan achchiq tarvuz urug‘idagi erkin aminokislotalar miqdori qiyosiy taqqoslanganda O‘zbekistonda yetishtirilgan achchiq tarvuz urug‘ida aminokislotalarning umumiy miqdori 29,43 mg, Misrda yetishtirilgan achchiq tarvuz urug‘ida 23,17 mg, Jazoirda 13,88 mg va Nigeriyada 6,65 mg ni tashkil etdi.

O‘zbekistonda yetishtirilgan achchiq tarvuz urug‘i tarkibida sistein miqdorining ko‘pligi o‘simlikning dorivor xususiyatlarida muhim ahamiyatga ega. Sistein aminokislotalari qonda glyukoza, glyukozalangan gemoglobin va oqsil oksidlanishi darajasini pasaytiradi va qandli diabet bilan kasallangan bemorlarda qondagi qand miqdorini tushiradi. Ilmiy izlanishlar natijalariga ko‘ra, glitsin, serin, glutamin va asparagin aminokislotalari insulin sezuvchanligini oshirishi aniqlangan.

Glitsin insulin sezuvchanligi va insulin sekresiyasining oshishiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi va β -hujayralardagi glitsin reseptorlari va metil-aspartat reseptorlariga ta’sir qilib, insulin sekresiyasini rag‘batlantiradi.

Achchiq tarvuz po'stlog'i va urug'i tarkibidagi aminokislotalar miqdori

Aminokislotalarning nomi	Po'stlog'i		Urug'i	
	Ushlanish vaqti, min	Konsentratsiya mg/g	Ushlanish vaqti, min	Konsentratsiya mg/g
Asparagin kislota	1,456	1,22	1,633	2,97
Glutamin kislota	3,424	1,69	5,311	0,89
Serin	5,734	1,61	7,115	3,70
Glitsin	7,518	1,37	10,125	0,63
Asparagin	8,013	2,74	11,475	1,21
Glutamin	9,048	4,72	12,815	2,38
Sistein	9,975	3,75	15,033	6,06
Treonin	10,671	3,11	15,734	1,98
Arginin	11,433	1,37	16,529	1,76
Alanin	11,869	1,37	17,016	0,97
Prolin	13,474	3,09	19,411	0,71
Tirozin	14,780	2,37	21,341	0,80
Valin	19,702	2,13	23,247	0,76
Metionin	21,333	0,74	25,935	0,46
Gistidin	23,707	7,39	26,275	4,34
Izoleysin	26,260	1,39	27,865	0,48
Leysin	26,584	2,64	29,026	0,98
Triptofan	29,760	2,44	29,323	1,55
Fenilalanin	31,113	0,39	30,585	0,45
Lizin gidrokslorid	32,495	2,50	32,077	0,80
Jami		48,14		29,43

Achchiq tarvuzning po'stlog'i va urug'i tarkibidagi suvda eruvchi vitaminlar miqdori yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi usulida tekshirildi va quyidagi natijalar olindi: (3-jadval)

Achchiq tarvuz po'stlog'i va urug'i tarkibidagi vitaminlar miqdorini xromatografik aniqlash natijalari

Vitamin	Po'stlog'i		Urug'i	
	Ushlanish vaqti, min	Konsentratsiya mg/g	Ushlanish vaqti, min	Konsentratsiya mg/g
C	4,846	1,25	4,824	0,08
B ₁	9,608	-	9,305	0,04
B ₂	11,025	2,15	10,991	1,44
B ₆	11,752	2,64	11,716	3,81
B ₉	13,829	14,8	13,462	0,05
PP	15,253	0,05	15,102	0,17

Achchiq tarvuz tarkibidagi vitaminlar miqdori o'rganilganda po'stlog'i tarkibida vitamin B₉ (14,8 mg/g), urug'i tarkibida esa B₆ (3,81 mg/g) eng ko'p miqdorda mavjudligi aniqlandi. Eng kam uchraydigan vitaminlardan po'stlog'i tarkibida PP (0,05 mg/g) va urug' tarkibida B₁ (0,04 mg/g) ekanligi aniqlandi.

O‘zbekistonda yetishtirilgan achchiq tarvuz tarkibidagi vitaminlar miqdori Nigeriya, Jazoir va Misrda yetishtirilgan achchiq tarvuz bilan qiyosiy taqqoslanganda qandli diabet kasalligini davolashda muhim bo‘lgan B₆ vitaminining ko‘pligi shifobaxshlik xususiyatlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Achchiq tarvuz urug‘i tarkibida B₆ vitaminining ko‘p miqdorda mavjudligi o‘simlikning dorivor xususiyatlarida muhim ahamiyatga ega. Bizga ma‘lumki, qandli diabet bilan og‘rigan bemorlarda qondagi glyukoza darajasi yuqori bo‘lganligi sababli, ular glikasiyaga ko‘proq moyil bo‘ladi. Glikasiya reaksiyalari katarakta, buyrak yetishmovchiligi va hatto Alsgeymerga olib kelishi mumkin. Piridoksamin deb ataladigan B₆ vitaminining noyob shakli zaharli glikasiya reaksiyalariga halal berishi ma‘lum. Vitamin B₆ glyukoza, lipidlar, aminokislotalar, DNK va neyrotransmitterlarning metabolizmini tartibga soluvchi taxminan 150 ta reaksiya uchun kofaktordir.

Achchiq tarvuz tarkibidagi polisaxaridlar suvli ekstraksiya usulida ajratildi va miqdori aniqlandi. Tadqiqot obyekti hisoblangan achchiq tarvuz tarkibida gemisellyulozaning miqdorining ko‘p ekanligi achchiq tarvuz asosida oziq-ovqat qo‘shilmalari olish va qandli diabet hamda boshqa kasalliklarda foydalanishda ijobiy samara beradi. Quyidagi 4-jadvaldan ma‘lum bo‘ldiki, achchiq tarvuz tarkibidan eng ko‘p polisaxarid gemisellyuloza 10,76 g ajratib olindi. Gemisellyuloza ichak faoliyatini tartibga solish, qonda glyukoza miqdorini saqlab turish, immunitetni oshirish kabi xususiyatlarga ega. Pektin moddalari esa 0,92 g miqdorda ekanligi aniqlandi.

4-jadval


100 g achchiq tarvuz tarkibidagi polisaxaridlarning miqdorini aniqlash natijalari.

№	Polisaxaridlarni ajratib olish bosqichlari	Miqdori (g)
1	Suvda eruvchan polisaxaridlarning 1-fraksiyasi (SEP-1)	1,81
2	Suvda eruvchan polisaxaridlarning 2-fraksiyasi (SEP-2)	0,52
3	PM (pektin moddalari)	0,92
4	Gemisellyuloza (GS)	10,76

Achchiq tarvuz urug‘i tarkibidagi yog‘ kislotalari va murakkab efirlarning miqdori ME-FA (Methyl ester Fatty acids) usuli bo‘yicha aniqlandi. Tadqiqotlar achchiq tarvuz urug‘i tarkibida eng ko‘p miqdorda 8,11-oktadekadiyen kislotasining metil efiri (47,62%) va linolein kislotasi (16,88%) ekanligini ko‘rsatdi. Amerikalik olimlar tadqiqotlarida ko‘p miqdorda linolein kislotasi bo‘lgan mahsulotlarni iste‘mol qilish 2-toifa diabet xavfining pasayganligini aniqladilar. Turli yog‘lar va uglevodlar hisobiga linolein kislotasini ko‘paytirish 2-toifa qandli diabetning oldini olishga yordam berishi kuzatilgan.

Achchiq tarvuz urug‘i tarkibidagi makro- va mikroelementlar miqdorini plazmalar induktiv bog‘langan mass-spektrometriya metodi bilan aniqlandi. Bunda achchiq tarvuz urug‘i tarkibida kaliy (6443,3 mkg/g), magniy (5951 mkg/g), kalsiy (4635,9 mkg/g) va natriy (4202 mkg/g) makroelementlari nisbatan ko‘proq mavjud. Mikroelementlardan esa temir (2227,5 mkg/g), mis (598,95 mkg/g) va fosfor (3080 mkg/g) miqdorda ekanligi aniqlandi.

Achchiq tarvuz urug‘i va po‘stlog‘i ekstraktini antioksidant faolligini adrenalini *in vitro* sharoitida aniqlandi va tahlil natijalari bayon etildi.



1-rasm. Namunalarning antioksidant faollik diagrammasi

Namunalarning antioksidantlik faolligi adrenalinning *in vitro* sharoitida autooksidlanish reaksiyasining ingibirlanishi bilan aniqlanganda namunalarda kislorodning erkin shaklini hosil bo‘lishiga to‘sqinlik qildi. Barcha olingan namunalarni standart antioksidant kversetin hamda gliklazid antioksidantlari bilan solishtirildi (1-rasm). Olingan natijalarda namunalarning antioksidantlik xususiyatlari mavjudligini ko‘rsatdi.

Bunda achchiq tarvuz urug‘i (64,77) va po‘stining (60,32) 500 mg/ml eritmasida antioksidantlik xususiyatlari etalonlarga nisbatan xususan, achchiq tarvuz urug‘ida gliklazidga nisbatan 6,4 marta, kversetininga nisbatan 1,9 marta yuqori ekanligi aniqlandi. Achchiq tarvuz po‘stida esa antioksidantlik xususiyatlari gliklazidga nisbatan 6 marta, kversetininga nisbatan 1,7 marta yuqori ekanligi aniqlandi.

Ilmiy tadqiqotlarimiz natijasida, qandli diabet kasalligini oldini olish va bu kasallikda qondagi qand miqdorini tushirish maqsadida “ASMIRTOL” va “ASMIRTOP” oziq-ovqat qo‘shilmalari ishlab chiqildi va ularning tarkibidagi vitaminlar, flavonoidlar, makro- va mikroelementlar hamda mahsulotning antioksidant va antiradikal faolligi xususiyatlari o‘rganildi va qandli diabet kasalligidagi ahamiyati tahlil qilindi.

Achchiq tarvuz asosida olingan oziq-ovqat qo‘shilmalari tarkibidagi makro- va mikroelementlar miqdori esa induktiv bog‘langan plazmali mass-spektrometriya usuli bilan aniqlandi. Bunda ASMIRTOL oziq-ovqat qo‘shilmasi tarkibida eng ko‘p uchraydigan kimyoviy elementlar kaliy (8300 mg/g), fosfor (6800 mg/g), magniy (6500 mg/g) va kalsiy (3500 mg/g), ASMIRTOP oziq-ovqat qo‘shilmasida esa

kaliy (23000 mkg/g), kalsiy (10000 mkg/g), magniy (2000 mkg/g) va natriy (1400 mkg/g) ekanligi aniqlandi.

Achchiq tarvuz asosida olingan ASMIRTOL VA ASMIRTOP oziq-ovqat qo‘shilmalari tarkibidagi suvda eruvchi vitaminlar va flavonoidlar miqdori YuSSX usulida aniqlandi.

5-jadval

ASMIRTOL oziq-ovqat qo‘shilmasi tarkibidagi vitaminlarning miqdori

Vitamin	Ushlanish vaqti, min.	Konsentrasiya, mg/l	Miqdori, mg/g
B ₁	1,886	1,488	0,05
C	2,851	1,981	0,2
B ₉	13,67	7,854	0,22
B ₂	14,452	13,15	0,3
B ₆	4,958	9,405	2,25
B ₁₂	Aniqlanmadi	0	0,000

“ASMIRTOL” oziq-ovqat qo‘shilmasi tarkibida eng ko‘p uchraydigan vitamin B₆ 2,25 mg/ g va eng kam uchraydigan vitamin B₁ 0,05 mg/g ekanligi aniqlandi.

“ASMIRTOP” oziq-ovqat qo‘shilmasi tarkibidagi vitaminlar ham yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi usulida aniqlandi.

6-jadval

ASMIRTOP oziq-ovqat qo‘shilmasi tarkibidagi vitaminlarning miqdori

Vitamin	Ushlanish vaqti, min.	Konsentrasiya, mg/l	Miqdori, mg/g
B ₁	1,982	3,777	0,09
C	3,038	2,631	0,06
B ₉	13,594	20,07	0,48
B ₂	14,509	7,944	0,20
B ₆	4,49	1,793	0,04
B ₁₂	13,52	1,028	0,02

ASMIRTOP oziq-ovqat qo‘shilmasi tarkibida eng ko‘p uchraydigan vitamin B₉ 0,48 mg/g va eng kam uchraydigan vitamin B₁₂ 0,02 mg/g ekanligi aniqlandi.

ASMIRTOL oziq-ovqat qo‘shilmasi tarkibidagi fenol birikmalarni YuSSX usulida aniqlandi hamda natijalar qayta ishlanib 7-jadvalda keltirildi.

ASMIRTOL oziq-ovqat qo'shilmasidagi fenol birikmalar va kofeinni xromatografik aniqlash natijalari

Nomlari	Ushlanish vaqti, min.	Konsentrasiya, mg/l	Miqdori, mg/g
Gall kislota	6,271	6,165	0,22
Kofein	11,77	6,704	0,24
Rutin	12,89	0,302	0,01
Kversetin	16,73	1,877	0,07
Salitsil kislota	15,92	1,477	0,05

Bunda achchiq tarvuz asosida olingan ASMIRTOL oziq-ovqat qo'shilmasi tarkibidagi fenol birikmalar va kafein miqdori o'rganilganda, kofein 0,24 mg/g, gall kislotasi 0,22 mg/g, kversetin 0,07 mg/g, salitsil kislota 0,05 mg/g va rutin 0,01 mg/g miqdorda ekanligi aniqlandi.

ASMIRTOP oziq-ovqat qo'shilmasi tarkibidagi fenol birikmalarni YuSSX usulida aniqlandi. Namunaning 1 g miqdori ekstraktini xromatogrammasi olindi hamda natijalar qayta ishlanib 8-jadvalda keltirildi.

ASMIRTOP oziq-ovqat qo'shilmasi fenol birikmalar va kofeinni xromatografik aniqlash natijalari.

Nomlari	Ushlanish vaqti, min.	Konsentrasiya, mg/l	Miqdori, mg/g
Gall kislota	5,548	1,894	0,04
Kofein	11,49	3,348	0,08
Rutin	13,04	5,117	0,13
Kversetin	16,94	1,008	0,02
Salitsil kislota	15,96	1,08	0,03

Bunda achchiq tarvuz asosida olingan ASMIRTOP ekstraktidagi fenol birikmalar va kofein miqdori o'rganilganda, rutin 0,13 mg/g, kofein 0,08 mg/g, gall kislotasi 0,04 mg/g, salitsil kislota 0,02 mg/g va kversetin 0,02 mg/g miqdorda ekanligi aniqlandi.


Rutin β -hujayralardan insulin ishlab chiqarishni faollashtirish va Langergans orolchalarini degenerativ o'zgarishlardan himoya qilish, glyukoza so'rilishini yaxshilash xususiyatlariga ega bo'lgan fenol birikma hisoblanadi.

Tadqiqotchilar kofeinli va kofeinsiz qahva 2-toifali diabetni rivojlanish xavfini kamaytirishini aniqladilar. To'plangan dalillar shuni ko'rsatadiki, qahva ichish kasallikdan himoya qilishga yordam beradi.

Kversetin qon glyukozasini, jigarda glyukoza, ferment va xolesterin miqdorini pasaytiradi. Shuningdek, u hujayralar shikastlanishining oldini olish, oshqozon osti bezi β -hujayra orolchalarining yangilanishini kuchaytirish va keyinchalik insulinning chiqarilishini ko'paytirish xususiyatlariga ega.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, achchiq tarvuz tarkibida qandli diabet kasalliklarini davolash va oldini olishda faol ishtirok etadigan vitamin va flavonoidlar miqdori ko'p bo'lganligi sababli achchiq tarvuz urug'i va po'stidan ushbu kasallikni xalq tabobati usullari yordamida davolash uchun oziq-ovqat qo'shilmalari ishlab chiqish va ilmiy tadqiqotlarni yanada chuqurroq o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.


Achchiq tarvuz asosida olingan oziq-ovqat qo'shilmalarini antioksidantlik faolligini *in vitro* sharoitida adrenalinni oksidlanish ingibirlanishini o'lchash usuli bo'yicha aniqlandi.



2-rasm. Namunalarning antioksidant faolligi diagrammasi.

Olingan natijalarda mahsulotlarning antioksidant faollik xususiyatlari mavjudligini ko'rsatdi. Bunda "ASMIRTOL" va "ASMIRTOP" oziq-ovqat qo'shilmalarining 500 mkg/ml eritmasida antioksidantlik xususiyatlari etalonlarga nisbatan xususan, "ASMIRTOL" oziq-ovqat qo'shilmalarida gliklazidga nisbatan 6,2 marta, kversetinga nisbatan 1,8 marta yuqori ekanligi aniqlandi. "ASMIRTOP" oziq-ovqat qo'shilmalarida esa antioksidantlik xususiyatlari gliklazidga nisbatan 5,9 marta, kversetinga nisbatan 1,7 marta yuqori ekanligi aniqlandi.

Antiradikal faollik organizmni halokatga olib keluvchi radikallardan asraydi. Organizmlarda yallig'lanish kasalligini oldini oladi va davolaydi. Shunga asoslanib, ushbu ish doirasida ASMIRTOL va ASMIRTOP oziq-ovqat qo'shilmalarining barqaror erkin radikal DFPG (2,2-difenil-1-pikrilgidrazil) ga nisbatan antiradikal faolligi barqaror radikal molekulalarining qaytarilish kinetikasini spektrofotometrik o'lchash usuli yordamida aniqlandi.



3-rasm. ASMIRTOL va ASMIRTOP oziq-ovqat qo'shilmalarning antiradikal faolligini eritma konsentrasiyasiga bog'liqlik diagrammasi.

Bunda ASMIRTOL va ASMIRTOP oziq-ovqat qo'shilmalardagi antiradikal faollik suvdagi va spirtidagi eritmasida aniqlandi. Suvdagi eritmasining natijalari 50 mkl ingibirlashda eng yuqori (95,2/86,3) faollikni ko'rsatdi. Bu ko'rsatkich etalonga nisbatan ASMIRTOL oziq-ovqat qo'shilmalari da esa 1,1 marta yuqori ekanligi isbotlandi.

ASMIRTOL oziq-ovqat qo'shilmalari qondagi glyukoza miqdorini kamayishiga ta'siri 160-180 g og'irlikdagi 18 ta oq kalamushlarda tajribalar asosida o'rganildi.

9-jadval

ASMIRTOL oziq-ovqat qo'shilmalari qondagi glyukoza pasaytiruvchi ta'sirini o'rganish

Guruhlar	Qonda glyukoza konsentrasiyasi, mmol/l			
	Boshlan-g'ich	30 daqiqa	60 daqiqa	120 daqiqa
Nazorat 40% glyukoza eritmasi	6,6±0,3	28,4±1,3*	27,3±1,9*	22,1±3,2*
Glukeyr, 250 mg/kg	5,9±0,2	22,4±2,3*	16,4±1,8 ^{*,a}	10,2±1,0 ^{*,a}
ASMIRTOL, 250 mg/kg	5,9±0,3	20,4±1,5 ^{*,a}	16,2±1,4 ^{*,a}	9,9±0,9 ^{*,a}

Izoh: * - nazorat bilan solishtirganda farqlarning qiymati $R < 0,05$

ASMIRTOL oziq-ovqat qo'shilmalari og'iz orqali yuborilgan hayvonlarning eksperimental guruhida glyukoza eritmasi kiritilgandan 30 daqiqa o'tgach, glyukoza miqdori $20,4 \pm 1,5$ mmol/l ni tashkil etdi, bu dastlabki natijadan 3,45 marta yuqori. 60 daqiqadan so'ng qondagi glyukoza darajasi $16,2 \pm 1,4$ mmol/l ni tashkil etdi, bu nazorat guruhidagidan 1,68 marta kam. 2 soatdan keyin, hayvonlarning qonida

glyukoza darajasi $9,9 \pm 0,9$ mmol/l, ya'ni nazorat guruhidagiga nisbatan 2,23 marta kam ekanligi aniqlandi (9-jadval).

Shrey Nutraceuticals & Herbals Pvt (Hindiston) tomonidan ishlab chiqarilgan "Glukeyr" preparati oshqozon ichiga yuborilgan hayvonlarning eksperimental guruhida glyukoza eritmasi kiritilgandan keyin 30 daqiqada glyukoza darajasi $22,4 \pm 2,3$ mmol/l ni tashkil etdi, bu dastlabki natijadan 3,79 marta yuqori. 60 daqiqadan so'ng qondagi glyukoza darajasi $16,4 \pm 1,8$ mmol/l ni tashkil etdi, bu nazorat guruhidagidan 1,66 marta kam. 2 soatdan keyin esa tajriba hayvonlarining qonida glyukoza darajasi $10,2 \pm 1,0$ mmol / l, ya'ni nazorat guruhiga nisbatan 2,17 marta kam ekanligi aniqlandi (9-jadval).

Achchiq tarvuz komponentlari jigar faoliyatini tiklashga va yallig'lanishni kamaytirishga, glyukoza va xolesterin darajasini normallashtirishga yordam beradi, shu bilan ateroskleroz, yurak xuruji va qon tomirlari xavfini kamaytiradi.

Andijon viloyatida yetishtirilgan achchiq tarvuzning o'ziga xos dorivor xususiyatini eksperimental o'rganishimiz natijasida gipoglikemik ta'sir borligi kuzatildi va achchiq tarvuz urug'i misolida xalq tabobatida qo'llash imkoniyati katta ekanligiga ishonch hosil qildik. Shuning uchun ishimizning keyingi bosqichida achchiq tarvuz asosida oziq-ovqat qo'shilmasi ishlab chiqish bo'yicha tadqiqotlar olib borildi.

Dissertatsiyaning **Achchiq tarvuz asosida olingan oziq-ovqat qo'shilmalarining kimyoviy tarkibini aniqlash (eksperimental qism)** deb nomlangan uchinchi bobida tarvuz (urug'i va po'sti) ekstraktining sifat va miqdor ko'rsatkichlarini aniqlash usullari, Achchiq tarvuzning po'stlog'i va urug'i tarkibidagi aminokislotalar, vitaminlar, makro- va mikroelementlar, polisaxaridlar hamda urug'idagi yog' va efir miqdorini aniqlash usullari, achchiq tarvuz urug'i va po'stlog'i ekstrakti hamda shu asosida yaratilgan ASMIRTOL VA ASMIRTOP oziq-ovqat qo'shilmalarining antioksidantlik, antiradikallik faolligini aniqlash usullari hamda tarkibidagi suvda eruvchi vitaminlar va flavonoidlar miqdorini aniqlash usullari bayon etilgan.

Dissertatsiyaning **Achchiq tarvuz asosida ASMIRTOL va ASMIRTOP oziq-ovqat qo'shilmalarini ishlab chiqish va ularni kimyoviy tarkibiga asosan sinflash** deb nomlangan to'rtinchi bobida achchiq tarvuz urug'i va po'stlog'idan oziq-ovqat qo'shilmalari tayyorlash va sanoat usulida ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish hamda oziq-ovqat qo'shilmalarini kimyoviy tarkibiga ko'ra sinflash va tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasi bo'yicha tovar kodini ishlab chiqish ko'rsatib o'tilgan.

Achchiq tarvuz asosida olinadigan ASMIRTOL VA ASMIRTOP oziq-ovqat qo'shilmalarini kimyoviy tarkibiga ko'ra sinflash va TIF TN bo'yicha tovar kodi ishlab chiqildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasi bo'yicha "Tarkibida kolotsintin, timol, linalool, linolil asetat, karvakrol, kukurbitatsin saqlagan, o'simliklar asosida ishlab chiqilgan tabiiy oziq-ovqat qo'shilmalari" uchun - 1212301005 tovar kodi tavsiya qilindi. Tadqiqot ishini olib borish davomida tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasi bo'yicha achchiq tarvuz o'simligi urug'i

va po‘stidan olingan shifobaxsh oziq-ovqat qo‘shilmalarini kimyoviy tarkibi asosida sinflab, ularga tavsiya qilingan 1212301005 tovar kodi 10- jadvalda keltirilgan.

10-jadval.

“ASMIRTOL” va “ASMIRTOP” nomli shifobaxsh oziq-ovqat qo‘shilmalariga TIF TN bo‘yicha tavsiya qilingan tovar kodi

TIF TN Kodi	Pozitsiyalarni nomlanishi
-- 121230	dorivor o‘simliklardan, yoki ularning ayrim qismlaridan tayyorlangan oziq-ovqat qo‘shilmalari
--- 121230100	boshqalar
-- 1212301005	tarkibida kolotsintin, timol, linalool, linolil asetat, karvakrol, kukurbitatsin saqlagan, o‘simliklar asosida ishlab chiqilgan tabiiy oziq-ovqat qo‘shilmalari

Olib borilayotgan tadqiqotlar natijasida achchiq tarvuzning kimyoviy tarkibini to‘la o‘rganish va oziq-ovqat qo‘shilmalarini ishlab chiqish yuzasidan bir qator ishlar olib borildi hamda yaratilgan “ASMIRTOL” va “ASMIRTOP” oziq-ovqat qo‘shilmasiga Respublika Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi tomonidan Ts 303271760-02:2023 raqamli texnik shart hamda texnik shart asosida texnologik yo‘riqnoma tuzildi va rasmiy ro‘yxatga olindi.

XULOSA

Tadqiqot obyekti sifatida olingan Achchiq tarvuz asosida xalq tabobati uchun olingan oziq-ovqat qo‘shilmalarini biologik faolligi va shifobahsh hususiyatlaridan amaliyotda foydalanish, hamda ularni kimyoviy tarkibiga ko‘ra sinflashni amalga oshirishda quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Eksperimental tadqiqotlar asosida achchiq tarvuz po‘sti va urug‘ini spesifik faolligini belgilovchi biologik faol moddalar majmui, aminokislotalar, suvda eruvchi vitaminlar, flavonoidlar, yog‘ kislotalar, murakkab efirlar va hayotiy zurur makro va mikroelementlardan iboratligi isbotlandi.

2. Achchiq tarvuz urug‘i va po‘stlog‘ining har xil nisbatdagi aralashmasini *in vitro* sharoitida antioksidantlik faolligini o‘rganishda tarvuz urug‘ining antioksidantlik xususiyatlari gliklazidga nisbatan 6,4 marta, kversetinga nisbatan 1,9 marta yuqori ekanligi, achchiq tarvuz po‘stida esa antioksidantlik xususiyatlari gliklazidga nisbatan 6 marta, kversetinga nisbatan 1,7 marta yuqori ekanligi aniqlandi.

3. Achchiq tarvuz urug‘i va po‘stlog‘ining kimyoviy tarkibini o‘rganish asosida qandli diabet kasalligini oldini oluvchi va davolovchi, samarali, ekologik toza,

tabiiy, tarkibida foydali biologik faol birikmalar saqlagan “ASMIRTOL” va “ASMIRTOP” nomli yangi biologik faol oziq-ovqat qo‘shilmalari ishlab chiqildi.

4. Achchiq tarvuz asosida olingan oziq-ovqat qo‘shilmalarining kimyoviy tarkibi, ya’ni aminokislotalar, vitaminlar, makro- va mikroelementlar, fenol birikmalar miqdori aniqlash natijasida, qandli diabetni profilaktikasi va davolashda yordam beruvchi faol moddalar mavjudligini ko‘rsatdi.

5. Yangi biologik faol oziq-ovqat qo‘shilmalarining antioksidant va antiradikal faolligi aniqlash natijasida “ASMIRTOL” oziq-ovqat qo‘shilmasida gliklazidga nisbatan 6,2 marta, kversetinga nisbatan 1,8 marta yuqori ekanligini, “ASMIRTOP” oziq-ovqat qo‘shilmasida esa gliklazidga nisbatan 5,9 marta, kversetinga nisbatan 1,7 marta yuqori ekanligini ko‘rsatdi, antiradikal faolligi esa etalona nisbatan “ASMIRTOL” oziq-ovqat qo‘shilmasida 1,8 marta “ASMIRTOP” oziq-ovqat qo‘shilmasida esa 1,1 marta yuqori ekanligi isbotlandi.

6. ASMIRTOL ni “GLUKEYR” preparati bilan oq kalamushlarda qandli diabet kasalligiga nisbatan dorivorlik hususiyatini qiyosiy tekshirilganda, ASMIRTOL ekstraktida “GLUKEYR” preparatiga nisbatan 1,3 martaga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi isbotlandi.

7. Achchiq tarvuz asosida olingan oziq-ovqat qo‘shilmalarini standartlash hamda uning asosida kapsula va choy ko‘rinishidagi oziq-ovqat qo‘shilmasini ishlab chiqish bo‘yicha Ts 303271760-02:2023 raqamli texnik shart ishlab chiqildi va O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirligi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati tomonidan tasdiqlandi. Olingan natijalar asosida biologik faol qo‘shilmalar uchun Andijon viloyatidagi “OLTIN VODIY TABIATI” MCHJ da “ASMIRTOL” (kapsula) va “ASMIRTOP” (choy) biologik faol oziq-ovqat qo‘shilmasini ishlab chiqarish imkoniyati yaratildi.

8. Tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasi bo‘yicha “ASMIRTOL” va “ASMIRTOP” oziq-ovqat qo‘shilmalari uchun “Tarkibida kolotsintin, timol, linalool, linolil asetat, karvakrol, kukurbitatsin saqlagan, o‘simliklar asosida ishlab chiqilgan tabiiy oziq-ovqat qo‘shilmalari” uchun-1212301005 xalqaro tovar kodi bojxona amaliyotida qo‘llash uchun tavsiya etildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
DSc.03/29.10.2021.К/Т.60.05 ПРИ АНДИЖАНСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

АНДИЖАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

МИРЗАЕВА ЗУБАЙДА ОДИЛЖОН КИЗИ

**ПОЛУЧЕНИЕ И КЛАССИФИКАЦИЯ ПИЩЕВЫХ ДОБАВОК ДЛЯ
НАРОДНОЙ МЕДИЦИНЫ НА ОСНОВЕ ГОРЬКОГО АРБУЗА**

**02.00.09 –Химия товаров
14.00.41 – Народная медицина**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ
доктора философии по химическим наукам**

Андижан – 2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована под номером В2023.2.PhD/K630 Высшей Аттестационной Комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инновации Республики Узбекистан.

Диссертация выполнена в Андижанском государственном университете

(Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещена в веб-сайте научного совета (www.adu.uz) и информационно-образовательном портале "ZiyoNet" (www.ziynet.uz))

Научные руководители:

Аскарар Иброхим Рахмонович
доктор химических наук, профессор
Топволдиев Тулкинжон
доктор биологических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Хожиматов Махсадбек Мўйдинович
доктор химических наук, доцент
Разақов Набижон Алижонович
доктор философии по химии

Ведущая организация:

Кокандский государственный педагогический институт

Защита диссертации состоится "26" XII 2023 года в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05 при Андижанском государственном университете. Адрес: 170100, г. Андижан ул. Университетская, 129. Тел.: (99877) 223 88 30, факс: (99874) 223 84 33.

С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Андижанского государственного университета (зарегистрационный номер ____). (Адрес: 170100, г. Андижан, ул. Университетская, 129. Тел.: (99877) 223 88 30, факс: (99874) 223 84 33, e-mail: abshax@mail.ru).

Автореферат диссертации разослан "13" XII 2023 года.

(№ реестра протокола рассылки 27 от "13 XII" 2023 года.)



Х.Исаков

Председатель научного
совета по присуждению учёных степеней
д.тех.н.

М.М.Мўминжонов

Ученый секретарь научного совета
по присуждению учёных степеней, д.х.н.

Ш.В.Абдуллаев

Председатель научного семинара
при научном совете по присуждению
учёных степеней, д.х.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация докторской диссертации (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. Определен химического состава лекарственных растений и разработка на их основе натуральных пищевых продуктов, полезных для организма человека, является одной из важнейших актуальных проблем в мире. В связи с этим разработка натуральных, безвредных и экологически чистых пищевых добавок, используемых в качестве вспомогательных средств к синтетическим лекарственным средствам, содержащих биологически активные соединения, макро- и микроэлементы, на основе частей лекарственных растений разных периодов вегетации, и их применение в народной медицине имеет особое значение.

В мире ведутся исследования по разработке пищевых добавок на основе природных соединений, выделенных из лекарственных растений, обладающих свойствами профилактики и лечения сахарного диабета. В связи с этим особое внимание уделяется разработке биологически активных добавок к пище на основе лекарственных растений, которые лечат или предупреждают диабет, являются натуральными, экологически чистыми, повышают иммунитет, заменяют некоторые синтетические препараты. Поэтому использование горького арбуза, снижающего содержание сахара в крови, для создания натуральных пищевых добавок, обладающих свойствами лечения и профилактики сахарного диабета, определения их химического состава и разработка нового кода для ТН ВЭД имеет важное значение.

В нашей республике разработаны и внедрены в практику натуральные пищевые добавки, обладающие свойствами профилактики и лечения многих заболеваний, повышения иммунитета организма человека. В стратегии развития нового Узбекистана² определены задачи, которые важно реализовать в рамках «Реализации Программы развития пищевой промышленности». На основе этих задач осуществляется создание безвредных натуральных биологически активных добавок к пище на основе природных источников, содержащих соединения, предотвращающие диабет, повышающие иммунитет организма, а также изучение их химического состава, структуры, свойств и разработка, внедрение товарных коды по ТН ВЭД которые имеют большое научное и практическое значение.

